

O'LMAS UMARBEOVNING "CHO'LI IROQ" QISSASIDA AYOL XARAKTERINING IFODALANISHI

Nurqobilova Shahnoza Urol qizi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.09.2025

Revised: 13.09.2025

Accepted: 14.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

qissa, ayol xarakteri,
obraz, ruhiyat, portret,
konflikt, tasvir.

"Cho'li iroq" qissasida ayol xarakterining umumiy va noyob qirralari haqida so'z boradi. Jumladan, ayollarda uchraydigan va ba'zi erkaklarga o'rnak bo'ladigan jasurlik, dadillik, mardlik kabi ulug' xislatlar haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari, o'sha davrda avj olgan bosmachilik zulmining oqibatida ro'y bergan qaltis vaziyatlar haqida ham fikr yuritilgan.

Kirish. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ijtimoiy muhit, adabiy - ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ong-u tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'mi, uning sohir tuyg'ulari, ko'rsatgan jasoratlari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy - psixologik, ramziy - majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq.

O'zbek adabiyotida ayollar obraziga murojaat qilish, ularning turfa qiyofalarini yaratish XX asrning dastlabki yillarida yaratilgan nasriy asarlarimizda ko'rina boshladi. Kumushbibi, Zaynab ("O'tgan kunlar"), Zebi ("Kecha va kunduz"), Unsin ("Daxshat"), Gulnor ("Qutlug' qon"), Saida ("Sinchalak") va hokazo asarlarni keltirishimiz mumkin.

Garchand bu asarlarning barchasida ayollar obrazi yetakchi qahramon darajasiga chiqmagan bo'lsa-da, asardan ko'zlangan maqsadni u yoki bu darajada ochish uchun xizmat qilgan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida Xurshid Do'stmuhammad, O'lmas Umarbekov, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa yozuvchilar tomonidan ayollar obrazi kiritilgan.

Shu ta'rif va nuqtayi nazarlardan kelib chiqqan holda, O'lmas Umarbekovning "Cho'li iroq" qissaidagi ayol obrazlarini birma bir sanab chiqamiz. Qissada epizodik obraz, bir sanab o'tilgan obrazlar va asosiy qahramon bilan birgalikda jami 9 ta ayollar obrazi bor. Bular: asosiy obraz - Gavhar, epizodik obrazlar esa - samarqandlik tilanchi kampir Ko'paysin, Bekjonning onasi, Bekjon turgan uyning egasi Sultonposhsha xola, Raima Gavharning o'rtog'i, Moskvaga o'qishga ketayotgan Raimadan tashqari 3 ta qiz, ikki bolasini jallod o'ldirgan kampir obrazlaridir.

Endi ushbu ayollar obrazlarini asarda qay darajada rol o'ynashiga qarab tahlil qilib chiqamiz. Qissaning boshida musofirning nay chalayotgan holati tasvirlangan. U musofirning aynan ayol ekanligi qissamizdagi obrazlardan birini taajjubga soladi. Sababi ayol kishining nay chalib, tilanchilik qilishi, ayniqsa uning o'zbek ekanligi hayron qoldirgan edi. Yoshligida go'zal bo'lib ko'pchilikning hushini olgan, endi esa qarib kuni tilanchilikda qolgan bechora bir ayol...

Qissani boshidan o'qir ekansiz, barcha o'z yurtini tashlab ketgan odamlarning musofirdagi hayoti biz o'ylaganchalik yengil va yaxshi emasligiga yana bir marta amin bo'lasiz. Sababi hali Bekjon chol o'z tarixini aytmasdan burun boshlangan Ko'paysin kampirning tilanchiligi buning yorqin misoli hisoblanadi. U go'zalligi, husni, chiroyi borida bir yigit bilan Samarqanddan qochib chet elga ketgan, keyinchalik esa qochgan yigiti vafot etgan. Shundan so'ng u ayolni musofirlik har kuyga solgan. Uning hayotda ko'rgan azoblari shuni bizga isbotlab beradiki, o'zing tug'ilgan yeringdan boshqasi biz uchun hech qachon o'z vatanimiz ona tuprog'imizdek bo'lolmaydi.

Musofirlik haqida gap borar ekan, kampir payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning ham musofir bo'lganlarini aytib o'tadi. Undan so'ng uning yana hardamhayolli tutib, osmondagi kaptarlar haqida gapirib ketadi. Qissamizdagi keyingi ayol qahramon bu Bekjonning onasidir. Bekjonning o'z ta'biri bilan aytganda, onasi otasidan 20 yosh kichik bo'lib, bor yo'q farzandi shu Bekjon bo'lgan. Otasining tabib bo'lganligi, bundan tashqari davlat lavozimlaridan birida ishlaganligini aytib o'tadi. Otasi uyda bo'sh qolgan kuni barcha kasallar uyimizga kelardi deb eslaydi. Onasining nozik, kasalmand ayol bo'lganligini eslab, uning uy ishlari bilan kam shug'ullanishini, ko'proq

mutoala bilan band bo'lishini aytib o'tgan edi. Uning tili bilan aytganda: Mashrabni sevib o'qishini, "Yusuf va Zulayho" asarini esa yoddan bilishini ta'kidlaydi. Hatto kechalari o'z eriga kechalari allanarsalarni qiroat bilan o'qib berishini ham qistirib o'tadi. Biroq eri undagi bu qiziqishga jiddiy qaramasligini, lekin kayfi chog' paytlari undan birorta g'azal o'qib berishini iltimos qilib qo'yishini eslaydi. Otam bilan onamning bir - biriga bo'lgan bu samimiy munosabatiga asosiy sabab bu Bekjonning o'zi ekanligini aytadi.

Ayol tabiatan ojiz, ammo sabr va toqatda hammaga o'rnak bo'ladigan qilib yaratilganligi bois, munis, munavvar degan so'z eshitilganda ko'z oldimizga avvalambor mehribon onamiz gavdalanadi. Uni qiynash, uning shaniga dog' tushirish gunohi azim hisoblanadi. Qizlar ham xuddi shunday, axir ular bo'lajak onalar, rafiqalar, singillar va opalardir. Lekin bu hayot ekan, jamiyatda har xil toifadagi insonlar yashaydi. Ana o'shalar To'marisni shunday shijoatga majburlagan, ana o'shalar Nodira, Uvaysiy, Anbar Otinlarni kuchli qilgan.

Gavhar ham xuddi shunday momolarimiz, ajdodlarimizning davomchisi sifatida gavdalanadi. Endi uning yoshligidan boshlab shu paytgacha xarakter xususiyatini ochib beramiz. Gavharning xarakter xususiyati Bekjon tilidan berilganligini sababli uning so'zlarini birma bir keltirib o'tamiz.

"Gavhar mening ona qishlog'im - Chalishtan edi. Otasi kambag'al bir baliqchi bo'lib, Xo'jaylidan Krasnovodskka qatnaydigan barjalar ustaxonasida ishlardi... Gavhar o'g'il bolalarga o'xshagan sho'x edi. Ming xil o'yinlarni o'ylab topardi. Ko'pincha ikkalamiz biz bilan o'ynayotgan bolalarni chalg'itib, uzoqlarga ketib qolardik, y o bo'lmasa, ustaxonaga borib otasining ishlarini kuzatib o'tirardik".²

Shunday qilib, Bekjon Gavharning o'g'il bolalardek sho'x, tinib-tinchimas xarakterini va ularning bolaligi o'tgan qishloqdagi qurbaqa qurillashi- yu, jiydazordagi voqealarni eslaydi. Bundan tashqari Gavharning jiydadan yiqilib, oyog'i mayib bo'lganida Bekjonning otasi "Qiz bolaning bunchalik sho'x bo'lishini birinchi ko'rishim"³, deb aytganini eslaydi. Gavhardagi mana shu dovyuraklik, o'g'il bolalarga xos bo'lgan shijoat va mardlik uning yoshligidan hamroh edi.

Uning bu xususiyatlaridan tashqari rahmdillik, o'zbek xotin - qizlariga mos ibo, sharm-hayo ufurib turgan qizlardan edi. Uning tarixi, o'tmishi kamalakdek serjilo bo'lmasa ham u

²Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984 , 212-бет

³ Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984 , 221-бет

hayotdan va yashashdan zavq ololadigan qiz edi. Uning boshiga bolaligida juda og'ir kulfatlar tushgan edi. Uning otasini bosmachilar o'ldirishadi, onasining qo'l- oyog'ini bog'lab o'z uyida yoqib yuborishadi. Yoshligida shunday xo'rlikni ko'rgan qizning yurgida bosmachilarga nisbatan yana qanday iliqlik bo'lsin. Qissada Gavhar haqiqiy o'zbek ayolining sabrini matonatini o'zida mujassam qilgan timsol sanaladi. U jasurlik borasida Bekjondan ortiq, kerak bo'lsa irodada bosmachilarning baridan ustun edi.

Hayot shuncha sinovi bilan sinagan bo'lsa ham, Gavharda unga nisbatan noliq, norozilik ohanglari va gap- so'zlari yo'q edi. Uning olam- olam orzulari, Moskvaga borib o'qish, baxtli va saodatli hayot kechirish niyati bor edi. U, albatta, bu niyatiga yetadi, qiynalsa ham urunsa ham turtinsa ham. Hayotda inson shunday yashashi kerakligini, bir muammo orqasidan tushunlikka berilib, hamma narsani tashlab qo'yish kerak emasligini barcha inson shu Gavhar timsolidan o'rganishi kerak deb o'ylayman.

Yozuvchi Gavharni shunday ideal va kurashuvchan inson qilib tasvirlaydiki, nafaqat ayollar, balki uncha buncha erkaklar o'rnak ololadigan darajada edi. U shuning uchun ham Gavhar, ismi jismiga mos. Unday gavharlar noyobdir. Uning sof va samimiy ko'ngli hammada ham bor emas. Uning yoshligida sevgisiga sadoqati ham tahsinga sazovordir. Ya'ni Bekjon yoshligida bergan yog'och qilichni u hali ham asrab kelardi. Umuman olganda, Gavhar ideal obraz, uning kurashi, hayoti biz uchun ham o'mak olsa arziydigan holatdir.

Moskvaga olib ketilayotgan 4 ta qiz Gavhardan tashqari Raima va boshqa begona qizlar haqida hech qanday ma'lumot yoki xarakter xususiyati haqida qissada gapirilmaydi. Lekin bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ular ojiza edi. Ular o'z taqdirini ojizlik bilan, qohqoqlik bilan qarshi olishdi. Qissada Gavhar bilan Bekjon aylanib yurishganda, olomon ichida jallodning masalasi hal bo'layotgan bir paytda yana bir ona, ya'ni ayol obrazi gavdalanadi. Uning ikkita o'g'lini shu jallod boshini tanasidan judo etgan edi. Shunda xalq bu kampirga jallodni o'zi xohlagandek jazolashni aytadi. Ammo kampir unday qilmaydi, chunki u vijdonsiz, iymonsiz emas. Alloh bergan jonni Allohning o'zidan boshqasi ololmaydi. Bu orqali O'lmas Umarbekov o'zbekning ayolini u xoh yosh qiz bo'lsin, xoh kampir, kim bohishidan qat'iy nazar unda yurak, vijdon borligini keltirib o'tadi. Shu joyda shunchalik katta yurakka va shijoatga ega Gavhar ham qarab turolmaydi. Jallodni olomon o'rta qolishganda bu yerda qolishni xohlamaydi va Bekjonga ketishni aytadi. Faqatgina qahri qattiq, vijdonsiz odamgina birovning qiynalayotganini tomosha qila oladi. Bu esa bizning o'zbek ayollari uchun yoddir.

Xulosa. O'lmas Umarbekovning "Cho'li Iroq" qissasida ayol xarakterining turli

rakurslarda aks ettirilishi, qiz bola bo'la turib ham turli og'ir vaziyatlarda Gavharning tengsiz mardligi va jasorati namoyon bo'lishi haqida so'z boradi . Bundan tashqari, o'sha davrda avj olgan bosqinchilik, zo'ravonlik kabi millatni kemiruvchi illatlarning tobora kuchayishi tasvirlarni yanada murakkablashtiradi. Mardlik, jasurlik, qat'iyatlilik faqat erkaklar uchun emas, balki qizlar uchun ham xos fazilat ekanligiga urg'u berilgan. Umuman olganda, adibning bir qator asarlarida ayollar obrazi erkaklarga qaraganda ham kuchli bir ruhda tasvirlanadi. "Mening o'g'il bola jiyanim" asarida O'g'iloy obrazi ham xuddi Gavhar singari kuchli va jasur qilib gavdalanitirilganligi ham so'zimizni isbotlaydi. Ayol mana shunday sirli bir xilqat egasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Т.: Шарк, 2002
2. Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984
3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug'ati, Toshkent, Akademy Nashr, 2013-yil
4. Рахматуллаева Д. Улмас Умарбеков ва театр, укув кулланмаси, -Тошкент: Санъат, 2005
5. Турсунов С. Хаёт барибир ширин. Макола. Ўзбекистан адабиёти ва санъати, 1995-йил 7-июл
6. Одилова Н. Драматургия асослари, укув кулланма, Тошкент, 2008
7. Вохидов Е. Шаркий киргок - Т.: Sharq, 2014
8. Мирвалиев С. Улмас Умарбеков, "Севгим -севгилим"дан "Қизимдан мактублар"гача, Т.: Шарк, 2004.